

BIOXILMA-XILLIK QISQARISHI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

Bobonazarov G.Y.

Qarshi davlat universiteti, Qarshi sh. O'zbekiston Respublikasi

e-mail: g.bobonazarov@list.ru

Ключевые слова: биоразнообразие, продовольственная безопасность, население, антропогенное влияние, экология, биосфера.

Key words: *biodiversity, food security, population, anthropogenic influence, ecology, biosphere.*

Atrof – muhit ekologiyasining yomonlashuvi bilan aloqador bo'lgan global muammolar, ya'ni yovvoyi tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatni buzilishi – dunyoning umumiy epidemiologik holatida aks etmoqda [1,4]. Keyingi 100 yil davomida insoniyat qator yuqumli kasalliklar hujumiga duchor bo'lmoqda. Bular: OITS, EBOLA, SARS, parranda yoki cho'chqa gripi va boshqa shu kabi kasalliklar bo'lib, ularni odamlarda tarqalishini sababi – insoniyatni yovvoyi tabiat hayotiga aralshuvi oqibatlaridir. Bugungi kunda Dunyoda o'zining tarqalish masshtabi va o'lim darajasi bilan yuqori bo'lgan “COVID – 2019” pandemiyasi buning isbotidir. Xitoy xalq respublikasining Uxan provensiyasida 2019 yilning dekabr oyida birinchi bor aniqlangan bu virus qisqa vaqtda Dunyoning barcha mamlakatlarini ishg'ol qildi va davlatlar ichki va tashqi siyosatida epidemiologik, iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha chora-tadbirlar qo'llashga majbur etdi [5,6]. Dastlabki chora-tadbirlardan biri davlatlararo chegaralarda sayyohlar va xorijiy fuqarolar kirishini taqiqlash bo'ldi. Pandemik xavflilik jadal o'sishi ayrim davlatlarda karantin chora-tadbirlari yanada kuchaytirilishiga, ya'ni oziq-ovqat xom-ashyolarini taqiqlash kabi iqtisodiy chora-tadbirlar ko'rishga majbur etdi. 2020 yil aprel oyidan boshlab qator mamlakatlar xalqaro bozorga boshqoqli ekinlar mahsulotlarini eksport qilish kvotalari belgiladi. Masalan, Rossiya makkajo'xori va g'alla, Vet'nam-sholini eksport qilishni chegaraladi va h.k. [5].

Pandemiya ekologik atrof-muhitga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, ko'pgina zavod, fabrika, shaxta va boshqa zararli chiqaruvchi (ifloslatuvchi) ishlab chiqarish korxonalarini to'xtab qolishi, mazkur ob'ektlar atrofida havo, suv va boshqalarni toza bo'lishiga, ya'ni atrof-muhit holatiga ijobiy ta'sir etadi. Ikkinchi tomondan aholini mavjud ish haqidan uzilib qolishi, ularni biosferadan tabiiy resurslarni yirtqichlik bilan olishga majbur qiladi. Bular qatoriga brokonerlik, daraxtlarni kesish va yovvoyi hayvonlarni noqonuniy savdosi va h.k.o. Bunday antropogen ta'sir tashqi tabiiy muhit muvozanatini buzadi va biosferani o'zgartiradi. Bunday o'zgarishlar darhol ko'zga tashlanmasada, vaqt o'tishi bilan bu jarayonlar tuzatib bo'lmas muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi hayvonlarida turli infeksiyon va invasion kasalliklarni tarqalishi ham, ular mahsuldorligiga juda kaeta iqtisodiy zarar etkazadi[3,5,6].

Tabiat va inson munosabatlarida tabiat muvozanatlarini buzilishi muammolari ko'p yillar davomida har xil olimlar tomonidan o'rganilib kelinadi. Bular xorijiy mamlakatlar va rus olimlari: Holling C.S. and Stoetmet E.F., Chapin F.S., Brown T.C. et. ae., Shmalgauzen I.I., Shvarts C.C., Vernadskiy V.I., Grayd. S., Kravchuk T.A., va b.q., Brodskiy A.K., Bobilev N.G. va b.q. Bioxilma-xillik bo'yicha ko'plab ma'lumotlar mavjud, lekin bioxilma-xillik muammolari o'rganilishi hali yetarli emas, eng asosiysi ayrim mamlakatlarni rivojlanishida bioxilma-xillikni o'rni ustuvor yo'nalish sifatida hisobga olinmagan.

Bugungi kunda Yer shari aholisi soni tez va jadal o'smoqda. Texnik taraqqiyot bugungi kunga kelib aholini turli xavfli epidemiyalarga, kasalliklarga qarshi, ular oqibatini oldini oluvchi yuqori darajadagi vaksinalar bilan ta'minladi, bolalar o'limi qisqardi, barcha ijtimoiy qatlamlar ta'minoti uchun oziq-ovqat mahsulotlari ko'nlab ishlab chiqarilmoqda. Aholining turmush darajasining yaxshilanishi, tibbiyotda erishilgan muvaffaqiyatlarning natijalarida ko'pgina mamlakatlarda aholini o'rtacha umr ko'rish darajasi ham o'sdi. O'zbekistonda ham aholini o'rtacha umri birgina mustaqillik davrida (1991-2020 y.y.) 7-8 yilga os'di.

Bugun yer sharida 7713 mln, jumladan O'zbekistonda 35 mln aholi yashamoqda, 2100 yilga borib bu ko'rsatkich 10875 mln kishiga yetadi [2,5]. Yer shari aholisi soni 2100 yilga borib 29 % o'sadi, xuddi shunga mos ravishda insonlar hayotini ta'minlovchi resurslarga ham ehtiyoj 29 % ga oshadi (jadval).

Yer yuzi aholi sonini o'sishi asosan Uchinchi Dunyo mamlakatlari hisobiga yuz bermoqda. Vaholanki bu mamlakatlarda bugungi kunda oziq-ovqat, tibbiy xizmat va minimal ijtimoiy ta'minot masalalari keskin vaziyatda qolmoqda. Aholini intensiv o'sishi global ochlik muammolari Sahroi Kabir Janubiy davlatlari, Markaziy va Janubiy Osiyo, Sharqiy va Janubiy-sharqiy Osiyo va kam rivojlangan mamlakatlarda yuz berishi prognoz qilinmoqda. Demografik portlash kuzatilishi yuz beradigan bu mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalash imkoniyati jihatiidan kafolatlanmagan. O'sib kelayotgan aholini faqatgina ta'lim olish, tibbiy xizmat olish imkoniyatlari emas, balki sifatli va yetarli ovqatlanish imkoniyatlari ham bo'lmaydi. Yuqoridagi muammolarni yechmasdan turib bu mamlakatlar barqaror va muvozanatlashgan rivojlana olmaydi. Buning uchun birinchi navbatda ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan chegaralanib qolmasdan, u mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari bazalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish kerak. Ijtimoiy – iqtisodiy sohadagi murakkab destruktiv tendensiyaning yechimiga biosferaga antropogen ta'sir etish jarayonlarini koordinatsiya qilmasdan erishib bo'lmaydi[2,5].

Erishilgan natijalarga qaramay, tabiiy ekotizimlarga va yovvoyi hayvonlar va o'simliklar ko'payishiga salbiy omillarning ta'siri davom etmoqda. Biologik xilma-xillik komponentlari samarali muhofaza qilinishini davom ettirish uchun tizimli yondashuvni hamda kompleks tadbirlarni ishlab chiqish kun tartibiga tushib qoldi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi qarori bilan "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash STRATEGIYASI" tasdiqlandi.

Ushbu strategiya O'zbekistonda 2019-2028 yillar davrida biologik xilma-xillikni saqlashni ustuvor yo'nalishlarni, maqsadlari va vazifalarni, rejalashtirishni, ularga samarali erishish usullarini,

shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda biologik xilma-xillikni saqlash va undan foydalanish sohasida barqaror tizimni shakllantirish va rivojlantirish sohasida davlat siyosati amalga oshirilishi bosqichlarini belgilashga qaratilgan.

Bioxilma-xillikni Yerda hayot mavjudligini asosi, ya'ni uni "Bioxilma-xillik-bu hayot matritsasi" deb atashmoqda. Sayyoramiz biosferasiga inson ta'siri masshtabi ko'lamini uning bioxilma-xilligi bilan inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hisobga olish orqali tasavvur qilish mumkin. Sayyoramiz bioxilma-xilligini saqlash va aholini oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini faqatgina barcha mamlakatlarda tabiiy agrotsenozlarni madaniy agrotsenozlarga aylantirish, urbanizatsiya va ishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat yo'nalishlarini ekologik xavfsiz, tabiatga salbiy ta'sir qilmaydigan texnologiyalarni joriy etish ishlarini birgalikda kuchaytirish va takomillashtirish orqali yechimini topish mumkin.

Sayyoramizning beqiyos boyligi biologik xilma-xilligini saqlash va bu orqali aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mamlakatlarning barqaror rivojlanishi uchun eng ishonchli yo'l hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бродский А.К., Бобылев Н.Г. Биоразнообразие в преодолении современного экологического кризиса: исследование экосистемного и антропоцентричного подходов в стратегии устойчивого развития // Вестник СПбГУ. Науки о Земле. 2017. Т. 62. Вып. 3. С. 237-253. DOI: 10.21638/11701/spbu07.2017.302.
2. Bobonazarov G'.Y. Bioxilma-xillik. Darслик . Қарши "Насаф " НМИУ нашриёти, 2021. 317 бет.
3. Babonazarov, G. Y., Omonova, N. R., Orziyeva, Y. M., & Khosilova, G. A. (2022). Economic Damage Caused by Scabies Itch Mite, *Sarcoptes Scabiei* (Acariformes: Sarcoptidae) to the Wool Production of Sheep. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2433-2436.
4. Вернадский В.И. Живое вещество и биосфера. Москва: Мысль, 1994. 671 с.
5. Сложенкина М.И., Федотова А.М., Мосолова Е.А. Глобальные проблемы сохранения биоразнообразия и продовольственной безопасности // Аграрно-пищевые инновации. 2020. Т. 12, N 4. С. 76-86.
6. Яблоков А.В., Левченко, В.Ф., Керженцев А.С. Выход есть: переход к управляемой эволюции биосферы // *Philosophy & Cosmology*. 2015. 14, 92-118.